

TILLARNI ASRAB QOLISH

Narzullayeva Muhayyo Iftixor qizi

Buxoro viloyati Jondor tumani prezident tasarrufidagi ixtisoslashtirilgan maktab

E-mail: muxayyonarzullayeva1@gmail.com

Annotatsiya: Tillarni saqlab qolishdagi inson roli.

Kalit soʻzlar: Revitalizatsiya, jonlantirish, tirik tillar, xavf ostidagi tillar, yoʻqolib ketgan tillar, tilshunoslar, tillar uyasi.

Boshlangʻich davrlardan beri, tilshunoslar har xil tillar ustida ish olib borishmoqda. Borliqdagi jamiyki tillarni asrab qolish, albatta, oson emas. Ammo, koʻpdan koʻp odamlar aloqalarining yoʻqolishi baʼzi bir tillarning xavf ostiga qolishiga sabab boʻlmoqda deb ishoniladi. Darhaqiqat, bir til oʻlishi davomida sodir boʻladigan hech narsa gʻayritabiiy emas. Tarix boʻylab sayr qiladigan boʻlsak ham bir qancha tillar kelgan, amalda boʻlgan va yoʻqolib ketgan. Maʼlumotlarga koʻra, dunyoda 6.000tadan oshiq tillar mavjud. Bu tillarning yarmidan koʻpi kelasi asrga borib yoʻqolib ketadi degan taxminlar oʻz taʼsirini koʻrsatib kelmoqda. Bu degani, 1200 oyda 3000ta til yoʻq boʻlib ketadi. Oʻrtacha hisobda olib qaraydigan boʻlsak, demak, har 2 haftada yoki undan kamroq vaqtda 1ta til halok boʻladi.

Bularni qanday aniqlashtirishimiz mumkin? 2 yoki 3 oʻn ming yilliklar davomida tilshunoslar dunyo boʻylab solishtirma maʼlumotlarni yigʻib bordilar. Va buning natijasida shu aniq boʻldiki, agar tilda sanoqli soʻzlashuvchilar boʻlsa yoki yosh avlod bu tilga qiziqmasa, bu til tez orada nobud boʻladi. Bu taxminan 100ta soʻzlashuvchidan kam qolgan paytlarda sodir boʻladi. Izlanishlarga nazar soladigan boʻlsak, 1999-yilgi tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, 97% dunyo tillari atigi 4% odam tomonidan soʻzlashiladi.

Bugungi kun soʻzlashuvchilari juda ozchilikni tashkil etadigan va oʻsha soʻzlashuvchilarning asosiy qismini qariyalar tashkil etadigan tillarga yordam berish

uchun juda kech muddat. Bunaqa jamiyatlar o‘z tilini saqlab qolish uchun harakat qilish bilan band. Ammo, ba’zi tillar esa haligacha bu jiddiy holatni qabul qilgan emas. Masalan, qayerdadir birorta til xavf ostida qoladigan bo‘lsa, sekin-sekin boshqa tillarga o‘rin bo‘shatib beradi va unga yangi hayot baxsh etadi. Buning nomini “revitalizatsiya” yoxud “jonlantirish” deb ataladi.

Xavf ostida qolgan tillarning jamiyati o‘z tilini saqlab qolish uchun turli mezonlar ishlab chiqishni boshlaydi, negaki, bu usullar tilni “jonlantirish”iga ishonishadi. Har bitta jamiyat o‘z tiliga o‘zi mas’uldir. Madaniyatning asosiy qismi tilga ko‘rsatilayotgan hurmat-e’tibor orqali namoyon bo‘ladi. Hech qanday til yo‘qki, uni qo‘llab-quvvatlovchi materiallar hamda shu sohadagi olimlar-u o‘qituvchilarga ehtiyoj sezmasa. Tilni qog‘ozga tushirishdek asosiy vazifani bajarish uchun tilshunoslar talab etiladi. Xulosa shuki, tilni saqlab qolish uni hujjatlashtirish bilan hamo-hangdir, ya’ni yozib olish hamda uni tahlil qilish har bitta til sezadigan asosiy ehtiyojlaridan biridir.

Ammo, shu yerda bir savol tug‘ilishi tabiiy. Biz yo‘qolib borayotgan tillarni qutqarib qolish uchun chora topa olamizmi? Albatta, agar bizda iroda va yetarlicha mablag‘ mavjud bo‘lsa, shubhasiz, eplay olamiz. Bu oson kechmaydi, bir qancha bosqichlardan o‘tadi. Tilshunoslar shu sohaga sho‘ng‘ishlari va shu til bilan ishlaydigan o‘qituvchilar, shu tildagi ma’lumotlar bilan alohida-alohida ishlashlariga to‘g‘ri keladi. Uni jamiyatga taqdim etish, so‘ngra u tilning grammatikasi, izohli lug‘ati, imloviy lug‘ati va boshqa tilga xos uslublarni yaratib, shu davlatdagi maktablarga qo‘llanma sifatida berish kerak bo‘ladi. Har qanday tilni “jonlantirish” uzoq va mashaqqatli vaqtni talab etadi. Bunday holatlar shunchalik xilma-xilki, ularni umumlashtirishning iloji yo‘q. Ammo, har bir til uchun yiliga \$100.000 sarflanishi haqiqatdan uzoq emas. Agarda biz 3000ta tilning har biri uchun 3yil davomida shuncha kuch sarflasak, taxminan, \$900mln haqida bemaolol gapira olardik. Misollarga yuzlanadigan bo‘lsak, bizda ancha asil holatlar mavjud. Uelsda, Keltlarga oid til yo‘qolishdan to‘xtamayotgan bir paytda bu til so‘zlashuvchilarining soni keskin oshib ketgani hech kimga sir emas. Agarda siz Uelsga sayohat qilish uchun boradigan bo‘lsangiz, bu holatga tirik guvoh bo‘lasiz. Dunyoning boshqa tarafida esa

Yangi Zelandiyaning Maoriya viloyatida 1-marta 1982-yilda qo'llanilgan “tillar uyasi” sistemasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, 5 yoshdan oshgan bolaning til imkoniyatlarini kengaytirish nazarda tutilgan edi. Bu sistemaning ishtirokchilari, albatta, Maoriyaning tub aholisi edi. Ularning bolalari bu “uya”da yashab til yo'qolib ketishining oldini oladi deb umid bog'lashdi. Chunki, yoshlar bora-bora shu davlatning kelajagini o'z qo'liga oladigan murg'ak qalb sohiblaridir. Bunday holarlar dunyo yuzining turli burchaklarida tez-tez uchrab turadi. Yana bir xususiyat shundaki, agarda til o'sha davlatning siyosiy maqomida ham o'z o'rniga ega bo'lsa, bu til hech qanaqa xavf ostida emas deb erkin ayta olamiz. Buning misoli sifatida Faroe orolida yashovchilarning hayot tarzini olsak bo'ladi.

Yaxshi kitob sharhlari va materiallar mavjud bo'lsa, hatto yo'q bo'lib ketgan tillar ham tirilish ehtimoli yuqori. Bunday holat Janubiy Australiyaning Kaurna viloyatida kuzatilgani ko'pchilikni hayratda qoldirdi. Bu til taxminan bir asr davomida yo'q bo'lib ketgan, ammo juda yaxshi hujjatlashtirilgan, ya'ni, haddan tashqari yozma manbalarga ega edi. Shuning uchun uni qayta tiklash uchun kuch yo'naltirilganida, uni qayta qurish imkoni paydo bo'ldi. Qayta tiklangan til asl til bilan bir xil emas, albatta. Asl nusxadagi eski lug'atning ko'p qismi yo'q edi. Insonlar u tilni o'z shaxsiyatining haqiqiy belgisi sifatida qadrlashda davom etar ekanlar va undan foydalanishga tayyor bo'lsalar, bu til har qanday boshqa tirik til kabi o'z funksiyalarini va lug'atini qayta rivojlantira oladi. Shunisi aniqki, qayta tiklangan tillarning kelajagini bashorat qilish ancha mushkul. Ammo dunyoning ba'zi qismlarida tillarning saqlanib qolishi uchun yetarlicha yozma manba bor. Agarda biz ulardan odilona foydalanishni yo'lga qo'yadigan bo'lsak, dunyodagi tillarning umumiy soni minimal darajada ko'payganini ko'rishimiz mumkin.

Shu o'rinda, ona tilim hisoblanmish o'zbek tilimga to'xtalmasdan keta olmayman. O'zbek tili – tarixiy til. Mana asrlar bo'libdiki, o'z shon-shuhratini yo'qotgan emas. Statistikalarga ko'ra, bu tilda so'zlashuvchilarning umumiy soni 25million kishidan ko'proq (O'zbekistonning o'zida 18milliondan ortiq, Tojikistonda 1,2mln.dan ziyodroq, Afg'onistonda esa, turli manbalarga ko'ra, 2,5mln.dan 4mln.gacha, Qirg'iziston va Saudiya Arabistonning har birida 550-

600mingdan ortiq, Qozog‘iston va Turkmanistonning har birida 320-330 mingdan ortiq) kishini tashkil etadi. Ona tilim 1989-yil 21-oktabrdagi “Davlat tili haqidagi” qonunga muvofiq davlat tili maqomini qo‘lga kiritdi. Shundan so‘ng davlat ish hujjatlari, gazeta va jurnallar o‘zbek tilida yuritila boshlandi. Albatta, bu xalqimizga keng imkoniyatlar eshigini ochdi desam mubolag‘a bo‘lmaydi. O‘zbek tili o‘zing tarixi, o‘zining yozuvchilari, o‘zining shoirlari-yu o‘zining adabiyotiga ega til. Yozuvchilar haqida gapirar ekanman, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov, Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi bir nechta qalami o‘tkir adabiyotshunoslarning asarlari dunyo aholisi tomonidan sevib o‘qiladi. Har bir millat o‘z tilini ardoqlashi, uning rivoji uchun o‘z hissasini qo‘shishdan faxrlanishi lozim. Har kimning ona tili o‘zi uchun muqaddasdir. Shu qatorda Erkin Vohidovning she’rida bu so‘zlarim o‘z tasdig‘ini topadi:

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo‘lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o‘lmaydi!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://m.aniq.uz>
2. <https://m.ok.ru>